

## **BADIIY MATN TA'SIRIDAGI XATTI-HARAKATLAR NAZARIYASI PRAGMATIK ADABIYOTSHUNOSLIKNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA**

**Eshkobilov Abdivali Kazakovich**

*Samarqand davlat chet tillar instituti, Rus filologiyasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**E-mail:** [eshkobil-vali2001@mail.ru](mailto:eshkobil-vali2001@mail.ru)

***Annotatsiya.** Maqolada pragmatik adabiyotshunoslik sohasining tarkibiy qismi bo'lgan adabiy vositalar ta'siridagi xatti-harakatlar nazariyasining shakllanish asoslari, metodologiyasi, mavzuga bag'ishlangan ba'zi tadqiqotlar sharhi bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:** pragmatik adabiyotshunoslik, badiiy matn ta'siridagi xatti-harakatlar, semiotik yondoshuv, hayot tekstualligi, pragmatik maqsad va mazmun.*

## **ТЕОРИЯ ДЕЙСТВИЙ ПОД ВЛИЯНИЕМ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ**

***Аннотация.** В статье изложены основы формирования теории действий под влиянием литературных средств, являющейся составной частью прагматического литературоведения, методология, обзор некоторых исследований, посвященных теме.*

***Ключевые слова:** прагматическое литературоведение, действия под влиянием художественного текста, семиотический подход, текстуальность жизни, прагматическая цель и содержание.*

## **THEORY OF ACTIONS UNDER THE INFLUENCE OF A LITERARY TEXT AS AN INTEGRAL PART OF PRAGMATIC LITERARY STUDIES**

***Abstract.** The article outlines the foundations of forming the theory of actions under the influence of literary devices, a component of pragmatic literary studies, its methodology, and a review of some research on the topic.*

***Key words:** pragmatic literary studies, actions under the influence of a literary text, semiotic approach, textuality of life, pragmatic purpose and content.*

Maqolamiz pragmatik adabiyotshunoslik sohasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan adabiy vosita ta'siridagi xatti-harakatlar nazariyasi tahliliga bag'ishlanadi. Bu masalani yoritishda mutolaa muammosiga ma'noni anglash jarayoni nuqtayi nazaridan emas, ya'ni muallif yozuvining yoki o'qilayotgan narsaning ma'nosini tushunish hodisasi sifatida emas, balki o'quvchi-kitobxonning mutolaa hodisasi hosilasi yoki natijasidan foydalanishi nuqtayi nazaridan yondoshiladi. Bu muammo jahon adabiyotshunosligida, umuman madaniyatshunosligida, bir qator semiotik, psixologik, fenomenologik hamda ijtimoiy yo'nalishdagi tadqiqotlarning diqqat markazida turib kelgan. Bu tadqiqotlarning bevosita predmeti bo'lib, nemis adabiyotshunosi German Meyerning ta'rifi bilan aytganimizda "iqtiboslarga yo'naltirilgan hayot" ("das zitathafte Leben") xizmat qiladi, ya'ni badiiy adabiyotda tasvirlangan real xatti-harakatlardan o'zlashtirilgan modellar va taktika, aytilgan ilmiy o'rganishlarning diqqat markazida turadi.

Tadqiqotlarga xos bunday yondoshuv nemis retseptiv estetikasi doirasida oldinroq ma'lum edi: Izer kitobxonni aktyor deb atasa, Yauss mutolaa davomida uzlashtirilgan tajriba o'quvchini "kundalik hayotidagi irimlar va majburiy xatti-harakatlardan" ozod qilishi to'g'risida yozib, u (mutolaa-A.E) "armon bo'lib qolgan imkoniyatdan darak beradi, yangi orzu-istaklar, da'volar, maqsadlar sharofati bilan ijtimoiy faoliyatning o'yin makonini kengaytiradi va bu bilan istiqboldagi tajriba uchun yo'l ochadi" [1]deya ta'kidlaydi.

Afsuski, milliy o'zbek adabiyotshunosligida badiiy adabiyotning ta'lim tarbiyaga ta'siri pedagogikaga doir tadqiqotlarning tor mavzusiga aylantirilib, mafkuralashtirilgan g'oyaviy qarashlar ta'sirida bo'lishi barobarida, bir necha o'n yilliklar mobaynida izchil komplyativ qaytariqlar, g'aliz takrorlar bayonidan nari o'tolmadi. Holbuki, olimlarimiz, allaqachonlar ilg'or g'arb va rus adabiyotshunosligi vakillari tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlardan boxabar edilar. Biroq, mavzuga yuzaki va permanent tarzda davr talabi nuqtayi nazaridan yondoshish, zamonasozlik oqibatidagi e'tiborsizlik, ilmiy konsepsiyalardan ko'r-ko'rona yuz burish, yetakchi g'oyalarni e'tirof etmaslik, ilmiy-ijodiy uzlashtirmaslik, o'rganmaslik va yoxud oddiy ilmiy nigilizm oqibatida, nafaqat adabiy estetika, balki, umuman ijtimoiy gumanitar sohaning bir qator aspektlarida palapartishliklar, ilmiy noizchilik kuzatildi.

Fikrimiz quruq bo'lib qolmasligi uchun, mavzudan qisman chekinsakda, adabiyotshunoslikka doir bir misol keltirib o'tamiz: AQSH nazariyotchilari o'tgan asrlarning o'rtalaridan adabiy komparativistika sohasiga tubdan yangicha prinsiplarni joriy etishga intilishgan va intilishmoqda. Bu prinsiplarning mohiyati o'sha paytda

Rene Uellek tomonidan “Adabiyot nazariyasi” (1949) kitobida bayon qilingan edi. Rebe Uellek hammuallifi Ostin Uorren bilan birgalikda hamkasblarini badiiy adabiyotni bir butun holicha, huddi insoniyatning yalpi mavjudligi kabi, transnatsional-millatlararo uygʻunlikda, umumiyaxlitlik pozitsiyasidan oʻrganishga chaqirishgan. Metodologik jihatdan bu nazariyaning mohiyati turli milliy mintaqalardagi muayyan tarixiy-adabiy jarayonlarni oʻrganishni rad etish va asosiy eʼtiborni bevosita aloqalarsiz oʻxshashlikni va tipologik analogiyalarni, ularning obʼyektiv sabablarini aniqlamasdan, oʻrganishdan iborat.

Keyinchalik 50-60-yillarda Uellek AQSHda va boshqa mamlakatlarda oʻtkazilgan komparativistlarning kongreslarida “pozitivizmga qarshi isyon” chaqirigʻi bilan chiqishlar qiladi. Bundan uning asosiy maqsadi tarixiylikka va “tashqi tanqidga” moyil boʻlgan fransuz maktabi prinsiplarini rad etuvchi olimlarni birlashtirish edi. Oʻzining opponentlariga Uellek 1965-yilda Amerika komparativistlari Assotsiatsiyasi yigʻilishida qilgan maʼruzasida javob beradi. (“Qiyosiy adabiyotshunoslikning buguni” nomli maʼruzasi “Komporativnaya literatura” jurnalida chop etilgan) [2].

Bunday holatda komparativistika maktablari oʻta mavhum, metanazariy toʻgaraklarga aylanib, “tanqidni tanqid” sohasiga aylanib qoladi va bu yerda yaratilgan sxolastik konsepsiyalar adabiyotshunoslikni nafaqat jadval oʻzgarayotgan davrdan, balki adabiyotning oʻzidan ham uzoqlashtiradi. Afsuski, biz yuqorida taʼkidlaganimizdek, Rene Uellek va uning hammuallifi Ostin Uorren nomlari va rus tilida chop etilgan yagona “Adabiyot nazariyasi” monografiyasi [3] soʻnggi yillarda oʻzbek adabiyotshunosligiga doir aksariyat ilmiy tadqiqotlarda, monografiyalarda mexanik tarzda tilga olinib taʼkidlanib oʻtilsada, aksariyat hollarda, olimning yuqorida biz koʻrsatib oʻtgan qiyosiy adabiyotshunoslik borasidagi fikrlari mohiyati inobatga olinmaydi yoki yetarlicha baholanmaydi yoki umuman oʻrganilmasdan eʼtibordan chetda qoldiriladi.

Mavzuimizga qaytsak, rus adabiyotshunosligida adabiy taʼsir markazda turadigan xatti-harakatni oʻrganishga alohida eʼtibor berilishi, semiotikaga xos yondoshuvlar doirasida kuzatiladi, bunga misol tariqasida, avvalo, Yu.M.Lotmanning ilmiy ijodini koʻrsatmoq lozim. Olim, oʻz asarlarida, madaniy kodlashlashgan xatti-harakat fenomenini “adabiy xarakat” deb nomlaydi. Bunday hodisaning XVIII asrning birinchi yarmidan

XIX asr oʻrtalari (40-60 yillarigacha) va XX asr boshigacha keng tarqalganligini tahlil qilar ekan, Lotman bu davrlar uchun ongli tarzda muayyan syujet qonuniyatlariga muvofiq ravishda “xatti-harakatga biron bir matn sifatida qarash” xos boʻlganligini

ta'kidlaydi. Shaxsiy biografiyasiga nisbatan bo'lgan bunday estetik munosabat bevosita badiiy adabiyotni "hayotiy xulq-atvor, xarakterning modellari va dasturlari sohasi sifatida"[4] idrok etilishining shartiga aylanib, voqeaband syujetlarni real odamlarning hayot qurishining namunasi qilib qo'ydi. XX asr oxirida insoniy xatti-harakatlar borasida semiotik yondoshuvning mohiyatiga urg'u berilishi Amerika adabiyotshunosligining yangicha tarixiylik-istorizm yo'nalishida kuzatiladi. Bu yo'nalishga xos mashhur konsepsiyalardan biri hayotning tekstualligi konsepsiyasidir.

Ushbu konsepsiyaning mohiyati adabiyot va reallik o'rtasidagi turli-tuman shakllardagi o'zaro munosabatlarga doir bo'lib, jumladan, badiiy matnning real hayotga aylanish shakllariga ham tegishli. So'nggi fikr borasida gap ketganida o'quvchining ko'pincha amaliyotda o'qigan matnga xos bo'lgan fikrlarni amalga oshirishi, ularga amal qilishi va buning natijasida o'z xatti-xarakati hamda o'z borlig'ini o'zgartirishi nazarda tutiladi. Bu konsepsiyaga ko'ra, individual turmush adabiy narrativni ro'yobga chiqarilishi yoki voqelanishi qabilida talqin etiladi.

Dressler o'zining "Matn lingvistikasiga kirish" asarida [5] pragmatika predmeti sifatida belgining muloqot vaziyati ishtirokchilarigiga munosabatini ta'kidlab ko'rsatadi. Bu bilan olim o'rganilayotgan hodisaning funksional tabiatiga alohida e'tibor beradi, ya'ni lisoniy belgini muloqot aktining bir qator ekstralingvistik unsurlariga bog'liq ekanligidan dalolatdir. Bundan tashqari matn pragmatikasining ekstralingvistik ta'kidlaydi. Shu bilan birga u lingvistik unsurlarning pragmatik mazmunini (pragmatik jihatdan relevant faol bo'laklarga bo'linish, so'z tartibining pragmatik ahamiyati, semantik aloqalarning pragmatik shartlanilganligi va hokozolarni) ham, lingvistik alomatlar va ekstralingvistik vaziyatlar korrelyatsiyasini ham e'tirof etadi.

Pragmatikada ikki yo'nalish mavjud: 1) lisoniy birliklarning pragmatik imkoniyatlarini tizimli tadqiq etishga yo'naltirilgan (matnlarni, gaplarni, so'zlarni hamda fonetik-fonologik soha hodisalarini); 2) kommunikatorotsentrik (avtorotsentrik-markazda muallif turadigan) muloqot modellari ustivor bo'lgan lisoniy muloqot jarayonida kommunikantlarning o'zaro hamkorligini o'rganishga yo'naltirilgan.

Yo'nalishning birinchi sohasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar lisoniy ma'no bilan teng darajada aloqador bo'lgan semantika va pragmatika o'rtasidagi chegaralarni hal etishga yo'naltiriladi (R.Pozner, Dj. R.Serl, P.Sgall). Lingvistik pragmatikaning ikkinchi yo'nalishi nutq aktlari nazariyasiga to'liq mos keladi. Lingvistik pragmatika so'zlovchi subyekt va adresat, ularning muloqot jarayoni, suhbat vaziyatidagi

hamkorligi kabilar bilan bog‘liq yaxlit muammolar kompleksini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Til tadqiqining mantiqiy-falsafiy an‘analari (R.Montegyu va boshqalar) pragmatikani nutqiy aktlar va ularning voqelanish konteksti sifatida o‘rganadi. Nutq aktlari tahlilining falsafiy an‘analari asoschilari (Dj.Ostin, P.Grays, Dj.Serl) aynan lisoniy ifodalanishda kontekstga bog‘liq va qoidalarga mos qo‘llanish ularning ma‘no mohiyatini tashkil etadi, deygan fikr tarafdoridirlar.

Matn pragmatikasi masalalari, birinchi navbatda, til sohasidagi pragmatik tadqiqotlarning aniq maqsad va muammolarini belgilanishini taqozo qiladi. Z.S.Dotmurzayeva o‘zining ingliz tilidagi matnlar pragmatikasi va ularning tarjimai pragmatikasi muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotida [6] matn pragmatikasida doir asosiy masalalarni sanab o‘tadi:

1) pragmatik mazmuni belgilash, u matnda umuman va badiiy matnda xususan ifodalanishi mumkin;

2) bu mazmun voqelanishining shartlari;

3) matnning pragmatik imkoniyatlarini ifodalovchi lisoniy vositalar.

Badiiy adabiyot matnlarida pragmatika nuqtayi nazaridan ta‘sir ko‘rsatish hamda ma‘lumot uzatish kabi lisoniy vazifalar qayd etilgan. Ta‘sir ko‘rsatish mobaynida lisoniy birliklarning ayrim yig‘indisi endi nafaqat ma‘lum bir mazmuni yetkazishga, balki yangi mazmun yangi, “metamazmunni” ifodasiga aylanadi. Ma‘lumot-xabar, tildan semantik foydalanishdan tashqarida bo‘lgan yangi mazmun-maqsad uchun xizmat qila boshlaydi. Bunda intensiya gapning illokutiv bosqichida xarakterga kirishadi, ta‘sirchanlik esa – perlokutiv sathda kuzatiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яусс Х.-Р. История литературы как провокация литературоведения / пер. с нем. // Новое лит. обозрение. 1995. № 2. С. 80.

2. <https://platrum.ru/blog/5-knig-o-korporativnoj-kulture-obzor-izdanij-dlja-teh-kto-hochet-sformirovat-organizacionnuju-kulturu-v-kompanii>. Murojaat sanasi:05.09.2024

3. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы.-М.: Прогресс, 1978. - 328 с. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы.-М.: Прогресс, 1978. - 328 с.

4. Лотман Ю.М. Поэтика бытового поведения в русской культуре XVIII века // Лотман Ю.М. Избранные статьи: в 3 т. Т. I: Статьи по семиотике и типологии культуры, 1992. С. 248– 268.

5. Dressier W. EinfUhrung in die Textlinguistik. - Tubingen, 1973.-P. 93.

6. Дотмурзаева З.С. Прагматика англоязычного художественного текста и